

O‘ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDA YASHIL MOLIYALASHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI

Oripov Ilhom Abdullayevich

Tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasida barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim moliyaviy mexanizm sifatida yashil moliyaning holati va rivojlanish istiqbollari tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda o‘tish iqtisodiyoti sharoitida yashil moliya sektorining shakllanishiga ta’sir etuvchi institutsional, me’yoriy va bozor omillari baholangan. Tahlil obyekti sifatida ekologik yo‘naltirilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlovchi moliyaviy vositalar — yashil obligatsiyalar, kreditlar va investitsiyalar ko‘rib chiqilgan. Xalqaro tajriba tahlili O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tashabbuslar — “yashil” taksonomiyani joriy etish hamda barqaror infratuzilmaga xususiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha choralar bilan solishtirilgan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlari, shuningdek, mamlakatning barqaror rivojlanish modeliga mos kontekstual yondashuvdan foydalanilgan. Mamlakatda yashil moliyani rivojlantirish uchun me’yoriy bazani kengaytirish, loyihalar shaffofligini ta’minlash, institutsional hamkorlikni kuchaytirish hamda kichik va o‘rta biznes subyektlarining ekologik loyihalar uchun moliyaviy resurslarga kirishini yaxshilash zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisod; yashil moliya; barqaror rivojlanish; O‘zbekiston; yashil obligatsiyalar; o‘tish iqtisodiyoti; iqlim siyosati.

Аннотация

Данная статья посвящена анализу состояния и перспектив развития зелёных финансов в Республике Узбекистан как важного финансового механизма для достижения целей устойчивого развития. В исследовании оценены институциональные, нормативные и рыночные факторы формирования сектора зелёных финансов в условиях переходной экономики. Объектом анализа выступают финансовые инструменты, поддерживающие экологически ориентированные проекты, включая зелёные облигации, кредиты и инвестиции. Проведено сравнение международного опыта с реализуемыми в Узбекистане инициативами по внедрению «зелёной» таксономии и привлечению частных инвестиций в устойчивую инфраструктуру. В исследовании использованы методы сравнительного анализа, систематизации и обобщения, а также контекстуальный подход, соответствующий модели устойчивого развития страны. Обоснована необходимость расширения нормативной базы, обеспечения прозрачности проектов, укрепления институционального сотрудничества и улучшения доступа субъектов малого и среднего бизнеса к финансовым ресурсам для экологических проектов.

Ключевые слова: зелёная экономика; зелёное финансирование; устойчивое развитие; Узбекистан; зелёные облигации; переходная экономика; климатическая политика.

Abstract

This article analyzes the current state and development prospects of green finance in the Republic of Uzbekistan as an essential financial mechanism for achieving sustainable development goals. The study evaluates the institutional, regulatory, and market factors influencing the formation of the green finance sector in a transition economy. The research focuses on financial instruments supporting environmentally oriented projects, including green bonds, loans, and investments. International experience is compared with Uzbekistan's ongoing initiatives, such as the introduction of a "green" taxonomy and measures to attract private investments in sustainable infrastructure. The study employs comparative analysis, systematization, generalization, and a contextual approach adapted to the country's sustainable development model. The findings justify the need to expand the regulatory framework, ensure project transparency, strengthen institutional cooperation, and improve access of small and medium-sized enterprises to financial resources for ecological projects.

Keywords: green economy; green finance; sustainable development; Uzbekistan; green bonds; transition economy; climate policy.

KIRISH

Yashil moliya global moliyaviy tizimda barqaror rivojlanishning ajralmas mexanizmi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. 2015-yilda BMT tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishish jarayonida yashil moliya turli mamlakatlar uchun moliyaviy resurslarni safarbar etishning asosiy vositalaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki ijtimoiy tenglik, kambag'allikni qisqartirish va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi ustuvor vazifalar bilan uzviy bog'liqdir.

Shu bilan birga, global iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi va ekologik muammolarning kuchayishi yashil moliyaning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yashil moliyaviy instrumentlar — yashil obligatsiyalar, kreditlar, investitsiyalar va sug'urta vositalari — energetika samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik infratuzilmani yaratishda samarali qo'llanilmoqda.

O'tish iqtisodiyotiga ega davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun ham yashil moliyaning rivojlanishi ikki jihatdan dolzarbdir: ekologik jihatdan — iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish; iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan — yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, eksport salohiyatini oshirish va xalqaro investitsiyalarni jalb qilish.

Shu sababli, yashil moliya sohasi O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va milliy iqtisodiyotning global ekologik talablarga moslashuvini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab investitsiyaviy qarorlar faqat moliyaviy samaradorlik asosida emas, balki ijtimoiy va ekologik natijadorlik nuqtai nazaridan ham baholanadigan yondashuv — ijtimoiy javobgar investitsiya konsepsiyasi shakllana boshladi. Ushbu paradigmaning kengayishi moliyaviy resurslar bilan jamoat manfaatlari oʻrtasidagi bogʻliqlikni mustahkamladi. Bu esa global iqtisodiy jarayonlarning salbiy oqibatlari tufayli barqarorlik mezonlarini kapital qoʻyilmalari bahosiga integratsiya qilish zarurligini keltirib chiqardi.

“Yashil moliya” atamasi ilk bor 1992-yilda amerikalik iqtisodchi Richard Sandor tomonidan Kolumbiya universitetidagi maʼruzalar kurslari doirasida ilmiy muomalaga kiritilgan. Uning taʼrificha, iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashga yoʻnaltirilgan loyihalarni moliyalashtirishga asoslangan mazkur yondashuv atmosferaga chiqariladigan issiqxona gazlari miqdorini kamaytirish va ekologik jihatdan barqaror iqtisodiy oʻsishga oʻtish jarayonida muhim harakatlantiruvchi mexanizm sifatida xizmat qilishi mumkin.

Yashil moliya sohasidagi muhim institutsional qadamlardan biri — BMTning Atrof-muhit boʻyicha dasturi (UNEP) doirasidagi Moliyaviy tashabbusning 1992-yildagi Atrof-muhit va rivojlanish boʻyicha BMT konferensiyasida taqdim etilishi boʻldi. Shunga qaramasdan, 1990-yillar davomida moliyaviy bozorlarning chuqur ekologik transformatsiyasi amalga oshmadi.

Yashil moliya tushunchasi XXI asr boshlarida Gʻarb davlatlarida shakllana boshlagan. Bu jarayon biznesning faqat foyda olish emas, balki jamiyat va atrof-muhit oldidagi masʼuliyatini qayta baholash zarurati bilan bogʻliq edi. Shu bilan birga, iqtisodiy samaradorlik tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan saʼy-harakatlar bilan uygʻunlashishi lozimligi keng tan oлина boshladi. Bu tendensiya past karbonli rivojlanish konsepsiyasiga boʻlgan qiziqishning ortishi bilan uygʻun tarzda kechdi. Mazkur yondashuv issiqxona gazlari chiqarilishini kamaytirish va iqlim oʻzgarishi oqibatlarini yumshatish bilan birga, Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan.

BMT, OESR, G7, G20, Jahon banki (WB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD), Yevropa Ittifoqi, Xalqaro energetika agentligi (IEA) va Xalqaro qayta tiklanuvchi energiya agentligi (IRENA) kabi xalqaro tashkilotlar barqaror rivojlanishni taʼminlash va global iqlim muammolarini hal etishga yoʻnaltirilgan konseptual va normativ hujjatlarini ishlab chiqdi. Shu doirada “Masʼuliyatli investitsiya tamoyillari” (PRI) qabul qilindi, bu esa investitsiya qarorlarini qabul qilishda ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) mezonlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Bunda maqsad — xavf-xatarlarni boshqarish samaradorligini oshirish va uzoq muddatli investitsiya natijadorligini taʼminlashdir.

Shuningdek, xalqaro darajada maxsus institutlar — masalan, Carbon Disclosure Project (CDP), dunyodagi eng yirik atrof-muhitga taʼsir boʻyicha maʼlumotlar bazasi va Xalqaro barqaror rivojlanish standartlari kengashi (ISSB) tashkil etildi. Ular hisobot berishning aniqligi, ishonchligi va taqqoslash imkoniyatini taʼminlashga xizmat qiladi.

Umumiy jarayonlar shundan dalolat beradiki, yashil moliya faktori nafaqat jahon, balki milliy iqtisodiy tizimlarning transformatsiyasida ham strategik ahamiyat kasb etmoqda. Buni D. Kaneman, P. Krugman, K. Peres, M. Spens va N. Stern kabi taniqli iqtisodchilarning tadqiqotlari tasdiqlaydi.

Hozirgi kunda ilmiy va me'yoriy-huquqiy manbalarda yashil moliyaga doir yagona va universal ta'rif mavjud emas. Jumladan, BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) yashil moliyani barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishga yo'naltirilgan moliyaviy instrumentlar, investitsiya oqimlari va xizmatlar majmuasi sifatida tavsiflaydi. Mazkur yondashuvda yashil moliya ekologik jihatdan ahamiyatli loyihalarni qo'llab-quvvatlovchi keng ko'lamlı iqtisodiy mexanizmlarni o'z ichiga oladi.

Shunga o'xshash yondashuv 2016-yilda Xitoyda o'tkazilgan G20ning 11-sammitida ham o'z aksini topdi. Unda qabul qilingan ta'rifga ko'ra, yashil moliya faqat iqtisodiy emas, balki ekologik va ijtimoiy parametrlarni ham hisobga olgan holda barqaror rivojlanishga xizmat qiladigan investitsiyalarni qamrab oladi. Ushbu kategoriyaga qayta tiklanuvchi energetika, issiqxona gazlari chiqarilishini kamaytirish, suv resurslaridan samarali foydalanish, biologik xilma-xillikni saqlash va ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etishga doir loyihalar kiradi.

Shu tariqa, yashil moliya keng ma'noda nafaqat ekologik xatarlarni yumshatish vositasi, balki iqtisodiy ijobiy ta'sirga ega instrument sifatida qaraladi. U mehnat bozorida yangi ish o'rinlarini yaratish, korxonalar raqobatbardoshligini oshirish va investorlar uchun tavakkalchilik darajasini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.

2017-yili Yevropa Komissiyasi yashil moliyani ekologik barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan investitsiya amaliyotining tizimi sifatida ta'rifladi. Mazkur yondashuv doirasida yashil moliya tarkibiga issiqxona gazlari chiqarilishini kamaytirish, iqlim o'zgarishiga moslashish, biologik xilma-xillikni saqlash hamda tabiiy resurslardan samarali va uzoq muddatli foydalanishga yo'naltirilgan loyihalarga investitsiyalar kiradi.

Yevropa Komissiyasi nuqtai nazaridan, yashil moliya iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij kelishuvi talablarini amalga oshirish va past karbonli iqtisodiyotga o'tishni rag'batlantirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, u texnologik yangiliklarni joriy etish, korxonalar raqobatbardoshligini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratish jarayonlarini faollashtirishda salmoqli potensialga ega.

TAHLIL VA NATIJALAR

I. Yashil moliyalashtirishning asosiy rivojlanish yo'nalishlari va instrumentlari

Hozirgi kunda yashil moliya tizimi ekologik yo'naltirilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan turli moliyaviy instrumentlarni o'z ichiga oladi. Ularning eng asosiy shakllariga yashil obligatsiyalar, maxsus investitsiya fondlari, maqsadli kreditlar, dasturli investitsiya paketlari, ekologik belgilarga ega bank hisoblari hamda barqarorlik komponentlari bilan bog'liq sug'urta mahsulotlari kiradi. Har bir

instrument muayyan funksiyalarga ega bo‘lib, uning qo‘llanilishi loyiha turi va ko‘lamiga bog‘liq holda farqlanadi.

Shu bilan birga, yashil moliya barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda salmoqli imkoniyatlarga ega bo‘lsa-da, ayrim iqtisodiy va institutsional cheklolarga duch keladi. Asosiy to‘siqlar qatoriga yuqori tranzaksiya va tuzilmaviy xarajatlar kiradi, bu esa ayniqsa kichik va o‘rta biznes subyektlari ishtirokini cheklaydi; “yashil” investitsiyalar uchun yagona standartlar mavjud emasligi samaradorlikni baholashni qiyinlashtiradi; shuningdek, loyihalarning ekologik va ijtimoiy ta‘sirini to‘liq hisobga olish bilan bog‘liq metodologik murakkabliklar mavjud.

Barqaror moliyalashni institutsionallashtirish jarayoni jadallashganiga qaramay, go‘yoki ekologik mas‘uliyatni namoyon qilishga qaratilgan, amalda esa barqarorlik mezonlariga javob bermaydigan faoliyat — grinvoshing (grinvosh) muammosi hanuz dolzarbligini saqlab qolmoqda. Bu esa loyihalarni verifikatsiya qilish, norasmiy axborotlarni ochiqlash va xalqaro shaffoflik standartlarini rivojlantirish bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy choralarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘z navbatida, korporativ darajada “yashil” transformatsiyaga jalb etilgan ishtirokchilar soni ortib bormoqda. Ilgari ekologik kun tartibi bilan bog‘liq bo‘lmagan yirik kompaniyalar ham endilikda past karbonli texnologiyalar, o‘tish davri loyihalari va ESG tamoyillarini strategik boshqaruvga integratsiya qilish orqali faol ishtirok etmoqda. Bu holat yashil moliyani nafaqat iqlim maqsadlariga erishish vositasi, balki uzoq muddatli barqarorlik va investitsion jozibadorlikning muhim omili sifatida qarashni kuchaytirmoqda.

Climate Bonds Initiative (CBI) tashkilotining ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda global yashil moliya bozorida o‘shish qayta tiklandi. Yashil obligatsiyalar chiqarilishi umumiy hajmi 720 milliard AQSH dollaridan oshdi va bu tarixdagi eng yuqori ko‘rsatkich bo‘ldi. 2024-yil yakuniga kelib, xalqaro investitsiya oqimlarida yashil moliya ulushi taxminan 5,3 % ga yetdi va uning institutsional pozitsiyasi yanada mustahkamlandi.

Bundan tashqari, moliyaviy instrumentlar diversifikatsiyasi kuzatilmoqda: an’anaviy yashil obligatsiyalar va kreditlardan tashqari, o‘tish obligatsiyalari, barqaror IPO loyihalari va iqlim mandatiga ega investitsiya fondlari muhim rol o‘ynay boshladi. Bu tendensiyalar kapitalning karbon neytrallik, qayta tiklanuvchi energetika va sirkulyar iqtisodiyotga mos keluvchi loyihalarga qayta taqsimlanayotganini ko‘rsatadi.

II. 2025-yilda “Yashil moliya”ning zamonaviy holati va ustuvor rivojlanish yo‘nalishlari

2025-yilda “yashil moliya” barqaror o‘shish va iqlim o‘zgarishiga moslashuvga qaratilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan global moliyaviy tizimning muhim qismlaridan biri sifatida shakllandi. Ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv mezonlari (ESG) ahamiyatining ortishi hamda qator davlatlardagi iqlim siyosatining kuchayishi xususiy va davlat moliyaviy institutlarining “yashil” tamoyillarini keng joriy etishiga olib keldi.

Ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun faol qo‘llanilayotgan asosiy vositalar qatoriga yashil obligatsiyalar, iqlim jamg‘armalari, maqsadli kreditlar, barqaror

investitsiya jamg'armalari, maxsus sug'urta mahsulotlari va ESG-baholashni hisobga olgan moliyaviy instrumentlar kiradi. Bu vositalar turli sohalardagi tashabbuslarni moliyalashtirishda samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda — energetika infratuzilmasini yangilashdan tortib, sanoatni dekarbonizatsiya qilishgacha.

Shu bilan birga, xalqaro darajada keng yoyilganiga qaramay, “yashil moliya” muayyan tizimli to'siqlarga duch kelmoqda. Hozirgi kunda asosiy muammolardan biri — “yashil” investitsiya loyihalarini baholashda yagona standartlar va aniq taksonomiyaning yo'qligi, moliyalashtirish samaradorligini aniqlashda shaffoflikning yetishmasligi va rivojlanayotgan mamlakatlarda “yashil” instrumentlarga to'liq kirish imkoniyatining mavjud emasligidir. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes uchun bu to'siqlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

CBI ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda global miqyosda yashil obligatsiyalar chiqarilishi 570 milliard dollarga yetdi va 2022-yildagi pasayishdan so'ng tiklanish kuzatildi. 2025-yilda ham bu o'sish tendensiyasi davom etmoqda. Makroiqtisodiy barqarorlik, sarmoyadorlar ishonchi va yirik iqtisodiyotlarning iqlim majburiyatlari bu holatga turtki berdi. Xususi sektoridan tashqari, rivojlanayotgan davlatlar va suveren emitentlar ham bozorga faol kirib kelmoqda.

So'nggi yillarda “o'tish moliyasi” (transition finance) — yuqori uglerodli tarmoqlarni bosqichma-bosqich barqaror modellarga o'tkazishga qaratilgan instrumentlar faollashdi. “Yashil” moliyadan noto'g'ri foydalanish holatlarini (greenwashing) kamaytirish maqsadida xalqaro standartlar ishlab chiqilmoqda — jumladan, Yevropa Ittifoqining SFDR va EU Taxonomy dasturlari hamda G20 doirasidagi tashabbuslar.

2024–2025-yillarda Yevropa yashil obligatsiyalar bozorida yetakchilikni saqlab qolmoqda. Keyingi o'rinlarda Xitoy, AQSH va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi joylashgan. Ayni paytda rivojlanayotgan mamlakatlar ham faol ishtirok etmoqda: 2024-yilda yashil obligatsiyalar chiqarilishida ularning ulushi taxminan 18 % ni tashkil etdi. Lotin Amerikasi, Janubi-Sharqiy Osiyo va Afrikadagi suveren va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan tashkilotlar asosiy emitentlar sifatida ajralib turdi.

Sohalar bo'yicha eng ko'p investitsiya jalb qilayotgan yo'nalishlar quyidagilar bo'lib qolmoqda: energetika, transport, suv resurslari va qurilish. 2024-yilda yashil obligatsiyalar orqali moliyalashtirilgan loyihalarning 80 % dan ortig'i aynan shu sohalarga to'g'ri keldi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga (QTEM) investitsiyalar barqaror o'sishni namoyon qilmoqda. Ayniqsa, vodorod infratuzilmasi, aqlli tarmoqlar va jamoat transportini modernizatsiya qilish bo'yicha loyihalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Yashil kreditlash yo'nalishi ham ijobiy sur'atlarda o'smoqda. BloombergNEF ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakunida butun dunyo bo'yicha yashil kreditlar hajmi 145 milliard dollardan oshib ketdi — bu 2021-yilga nisbatan deyarli ikki barobar ko'pdir. Xitoy, Yevropa Ittifoqi va AQSH eng yirik bozorlar hisoblanadi. Xitoyda esa yashil kreditlar yangi korporativ qarz berishning 30 % ini tashkil etmoqda. Bu o'sishda regulyatorlar tomonidan berilgan imtiyozlar, jumladan, rezerv me'yorlarining farqli belgilanishi va soliq yengilliklari muhim rol o'ynamoqda.

Har qanchalikki yashil IPO hali ham bozorda cheklangan ulushga ega bo'lsa-da, 2023–2024-yillarda energiya, ekologik qishloq xo'jaligi va chiqindilarni qayta ishlash sohalarida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar tomonidan aksiyalarni birlamchi joylashtirishga qiziqish oshmoqda. IPO bozori ayniqsa Yevropa va Osiyoda faol, bu yerda ESG axborotlarni oshkor etish talablari listing jarayonlariga integratsiya qilingan.

Investorlar va kompaniyalar tomonidan ESG mezonlariga bo'lgan munosabat tobora jiddiy tus olmoqda. Har qanchalikki ESGni baholash standartlari to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, jamoatchilik va sarmoyadorlar tomonidan faqat tashqi hisobot bilan cheklanish emas, balki ESGni korporativ strategiyaga chuqur joriy etish talab qilinmoqda.

Yashil moliyaning keyingi bosqichda rivojlanishida davlat sektori va xalqaro moliyaviy institutlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Jumladan, Yevropaning Markaziy banki (ECB) va Xitoy Xalq banki (PBoC) kabi regulyatorlar yashil aktivlarni pul-kredit siyosati va davlat rezervlarini boshqarish jarayonlariga joriy etmoqda. Bu esa "yashil moliya"ni faqat ekologik emas, balki makroiqtisodiy barqarorlik omili sifatida namoyon qiladi.

III. O'zbekistonda yashil moliya bozorining shakllanish va rivojlanish xususiyatlari

Hozirgi davrda yashil moliya xalqaro kapital bozorlarida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda va bu jarayonda O'zbekiston ham faol ishtirok etmoqda. Shu bilan birga, mamlakatda barqaror moliya bozori institutsional, makroiqtisodiy va infratuzilmaviy xususiyatlarga ega bo'lgan sharoitda shakllanmoqda.

O'zbekistonda davlat yashil moliya milliy tizimini shakllantirishda asosiy ishtirokchi sifatida chiqmoqda. 2023-yilda "Yashil iqtisodiyot to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi, 2024-yilda esa xalqaro tashkilotlar (UNDP, GIZ, ADB va boshqalar) tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan yashil loyihalarning milliy taksonomiyasi tasdiqlandi.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning muhim mexanizmlari quyidagilardan iborat:

- Barqaror loyihalar bo'yicha foiz stavkalarini subsidiyalash dasturining ishga tushirilishi.
- Yashil obligatsiyalarni chiqaruvchilar va investorlar uchun soliq imtiyozlari.
- 2024-yilda Iqtisodiyot va moliya vazirligi qoshida Barqaror moliya markazi tashkil etildi.

Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik (DXSH) doirasidagi loyihalarga ekologik skrining talabining joriy etilishi 2025-yilda Qoraqalpog'iston va Jizzax viloyatlarida iqlimga mos infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga imkon berdi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining baholashicha, 2024-yil yakunida mamlakatdagi investitsiya bozori umumiy hajmida yashil moliyaviy vositalar ulushi taxminan 2,4 % ni tashkil etdi. 2030-yilgacha bu ko'rsatkichni 10 % gacha oshirish rejalashtirilmoqda. Yashil moliya mablag'larining asosiy qismi energetika (shu

jumladan, quyosh va shamol elektr stansiyalari), suv ta'minoti va uy-joy-kommunal sohaslariga yo'naltirilmoqda.

2025-yilda O'zbekistonda barqaror kapital bozorining 70 % dan ortig'i yashil obligatsiyalar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ular milliy birja platformalari orqali ham, xalqaro moliyaviy institutlardan jalb qilingan mablag'lar doirasida ham chiqarilmoqda. Ilk emitentlar qatorida — Energetika rivojlantirish agentligi hamda suv resurslari va transport sohaslarida faoliyat yurituvchi kvazidavlat kompaniyalar bor.

Shu bilan birga, jahon moliyaviy bozorlaridagi beqarorlik va qarz mablag'lariga chiqishning qiyinlashuvi sababli yangi yashil emissiyalar hajmi ortish sur'ati sekinlashgan. Bunday sharoitda davlat organlari ko'proq o'tish obligatsiyalariga e'tibor qaratmoqda. Bu — an'anaviy iqtisodiyot tarmoqlarida uglerod chiqindisini qisqartirishga yo'naltirilgan moliyaviy instrumentlardir (masalan, sement sanoati, qishloq xo'jaligi, issiqlik energetikasi).

“Kul rang” tarmoqlarni yashil o'tishga jalb qilish — parnik gazlari chiqindisini qisqartirish bo'yicha milliy maqsadlarga erishishning muhim sharti sifatida qaralmoqda. Shu munosabat bilan 2025-yilda Ekologiya va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan dekarbonizatsiya yo'l xaritalari ishlab chiqilib, ular asosida barqaror moliya vositalarini joriy etish boshlangan.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda yashil moliya bozori hali shakllanish bosqichida bo'lsa-da, uning institutsional asoslari bosqichma-bosqich mustahkamlanmoqda. Davlat va xalqaro hamkorlar faol ishtiroki, me'yoriy baza yaratilishi va moliyaviy infratuzilmaning rivojlanishi O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi istiqbolli barqaror moliya markazlaridan biriga aylantirishi mumkin.

IV. Yashil moliyaning rivojlanish tendensiyalari va uning vositalari: 2025-yildagi O'zbekistonga doir aksentlar

Global iqlim kun tartibi ortib borayotgan bir paytda yashil moliya iqtisodiyotni barqaror transformatsiya qilishda muhim element sifatida shakllanishda davom etmoqda. 2025-yil sharoitida, Parij kelishuvi va “yashil o'tish” tashabbuslari doirasidagi xalqaro majburiyatlar aniq harakatlarga aylanayotgan bir vaqtda, O'zbekiston ham milliy barqaror moliya tizimini shakllantirishda o'z pozitsiyasini kuchaytirmoqda.

Yashil moliya energetika, suv resurslari, qurilish, transport va chiqindilarni boshqarish sohaslaridagi loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladigan keng turdagi moliyaviy vositalarni qamrab oladi. Ular orasida asosiy o'rinni yashil obligatsiyalar, iqlim krediti, ixtisoslashtirilgan investitsiya jamg'armalari, sug'urta mahsulotlari va ESG-yo'naltirilgan vositalar egallaydi.

O'zbekistonda, Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlaridagi kabi, yashil moliya bozori hozircha institutsional shakllanish bosqichida. Shu bilan birga, muhim ildamlashuvlar kuzatilmoqda. 2023-yilda “2030-yilgacha yashil iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi” qabul qilindi, 2024-yilda esa xalqaro standartlarga muvofiq, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillariga asoslangan “Barqaror loyihalar milliy taksonomiyasi” tasdiqlandi.

2025-yil boshiga kelib:

- O‘zbekistonda yashil moliyaga mos keladigan loyihalarning umumiy qiymati 5,3 mlrd AQSH dollaridan oshdi;

- Milliy valyutadagi yashil obligatsiyalarning pilot emissiyalari respublika fond bozori orqali amalga oshirilmoqda;

- Davlat banklari kichik va o‘rta biznes uchun energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga oid loyihalarni qo‘llab-quvvatlovchi yashil kredit mahsulotlarini joriy etmoqda;

- O‘zbekiston Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (ADB) va Iqlim bo‘yicha global jamg‘arma (GCF) kabi xalqaro moliyaviy institutlar bilan yashil tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kelishuvlar imzolagan.

2024-yilda suveren qarz mexanizmlari orqali ustuvor investitsiya loyihalari — umumiy qiymati 350 mln AQSH dollar bo‘lgan barqaror infratuzilma loyihalari qo‘llab-quvvatlandi. Ular orasida Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida quyosh elektr stansiyalari qurilishi, suv ta‘minoti tizimlarini modernizatsiya qilish va barqaror qishloq xo‘jaligi loyihalari bor.

O‘z navbatida, mamlakatda yashil moliyani rivojlantirishda bir qator to‘siqlar mavjud:

- Uzoq muddatli barqaror moliyaviy vositalarning mahalliy bozori hali shakllanmagan;

- ESG baholash masalasida moliya institutlarining bilim va salohiyati cheklangan;

- Biznes va aholi orasida yashil moliyaviy mahsulotlarning afzalliklari to‘g‘risidagi ma‘lumot yetarli emas.

- Shu bois, 2025-yildagi ustuvor vazifalar quyidagilardan iborat:

- Yashil loyihalarni sertifikatlash va verifikatsiya qilish mexanizmlarini joriy etish;

- Mustaqil baholovchilarning milliy bazasini shakllantirish;

- Barqaror moliya infratuzilmasini rivojlantirish (birja mahsulotlari va raqamli vositalarni qo‘shgan holda);

- ESG yondashuvlarini korporativ hisobot va bank nazorati tizimlariga yanada integratsiya qilish.

Yashil moliya sohasidagi muvaffaqiyatli amaliyotlardan biri sifatida 2023-yilda O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston hamkorligida yaratilgan Markaziy Osiyo yashil moliya platformasida O‘zbekistonning ishtiroki qayd etish mumkin. Bu mintaqaviy darajada tajriba almashish va siyosatni muvofiqlashtirish imkonini yaratdi.

Alohida e‘tiborga molik jihat — bu xususiy sektorning faol ishtiroki. 2024-yilda O‘zbekistondagi yirik qurilish va energetika kompaniyalari ilk bor ESG hisobotlarini e‘lon qilib, dekarbonizatsiya bo‘yicha shaxsiy yo‘l xaritalarini ishlab chiqishni boshladilar. Bu kelgusida ularning xalqaro barqaror kapital bozorlariga chiqishi uchun asos yaratadi.

Yashil kreditlar sektori O‘zbekistonda bosqichma-bosqich o‘shishni namoyon qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma‘lumotlariga ko‘ra, 2025-yil boshida davlat banklarining yashil kredit portfeli 2,1 trln so‘mni tashkil etdi, bu 2023-yilga nisbatan 58 % ko‘pdir. Eng asosiy yo‘nalishlar qatoriga energiya tejovchi

texnologiyalar, quyosh panellari va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish kiradi.

Shuningdek, Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikda olib borilayotgan yashil islom moliyasining pilot dasturlarini alohida qayd etish lozim. Ular barqaror fermer xo‘jaliklarini yaratish va tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan.

Barqaror o‘sish modellari sari o‘tish davlat ishtirokisiz amalga oshmaydi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bank tomonidan moliyaviy regulyativ muhitni takomillashtirish yuzasidan choralar ko‘rilmoqda. Jumladan, yashil loyihalarni moliyalashtirayotgan banklar uchun differensial zaxira me‘yorlari, shuningdek uglerod chiqindisini qisqartirish natijalariga bog‘langan davlat obligatsiyalarini chiqarish rejalashtirilgan.

Global darajada iqlim xavflari va barqarorlikka bo‘lgan e‘tibor oshgan bir sharoitda, yashil moliya O‘zbekiston uchun nafaqat kapital jalb qilish vositasi, balki iqtisodiyotni tubdan modernizatsiya qilish, uning raqobatbardoshligi va eksport salohiyatini oshirish uchun ham muhim omilga aylanmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun talab qilinadigan moliyaviy resurslar hajmini aniq baholash hozir ham metodologik jihatdan murakkablik tug‘diradi. Bu, avvalo, iqlim investitsiyalari transchegaraviy xususiyatga ega ekani, ko‘plab sohalarni qamrab olishi va solishtiriladigan statistik ma‘lumotlarning cheklanganligi bilan bog‘liq.

Xalqaro qayta tiklanuvchi energiya agentligi (IRENA)ning yangilangan ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda kam uglerodli texnologiyalarga jahon investitsiyalari 1,8 trln AQSH dollariga yetdi — bu tarixiy rekord hisoblanadi. Biroq global isishni 1,5 °C darajasida cheklash uchun yillik investitsiya hajmi yaqin yillarda 5 trln AQSH dollardan oshishi kerak. Hozirgi baholarga ko‘ra, 2030-yilgacha barqaror iqtisodiyotga ajratilishi lozim bo‘lgan umumiy investitsiya hajmi 50 trln AQSH dollaridan ortishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, uzoq muddatli siyosiy barqarorlik va yashil aktivlarni klassifikatsiya qilishda yagona standartlar va yondashuvlarning yetishmasligi xususiy kapitalni keng ko‘lamda jalb etishda asosiy to‘siq bo‘lib qolmoqda. Mamlakatlar va tarmoqlar o‘rtasidagi ma‘lumotlarning solishtirilishi qiyinligi yashil loyihalarning investitsiyaviy jozibadorligini pasaytiradi, ayniqsa rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda.

2025-yil sharoitida yashil moliyalashni samarali tashkil etish uchun umumqabul qilingan tasdiqlash (verifikatsiya) va axborot oshkor qilish standartlarini institutsionallashtirish talab etiladi. Korporativ va infratuzilmaviy loyihalarning barqarorligiga nisbatan talablarni kuchaytirish, ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) shaffofligini oshirish, iqlim hisobotlarini joriy etish hamda “taksonomik” tizimlarni rivojlantirish orqali investorlar ishonchini mustahkamlash va belgilangan iqlim maqsadlariga erishish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Иқлим ўзгариши бўйича конференцияси (COP 29)даги нутқи URL: <https://president.uz/ru/lists/view/7690>
2. Nicholas Stern. The Economics of Climate Change: The Stern Review. Cambridge University Press. 2007.
3. John Elkington. Enter the Triple Bottom Line. URL: <https://johnelkington.com/archive/TBL-elkington-chapter.pdf>
4. Green financing. The United Nations Environment Program (UNEP). URL: <https://www.unenvironment.org/regions/asia-and-pacific/regional-initiatives/supportingresource-efficiency/green-financing#:~:text=Green%20>
5. G20 Green finance Synthesis report. G20 Green finance study group, 05.09.2016. https://unepinquiry.org/wp-content/uploads/2016/09/SynthesisReportFull_EN.pdf.
6. Defining “green” in the context of green finance. Final report. European Commission, October 2017. URL: <https://ec.europa.eu/environment/enveco/>
7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Самарқанд халқаро иқлим форумидаги нутқи
8. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/8025>
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг, 2019-йил 04-октябрь ПҚ-4477-сон “2019 — 2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” Қарори <https://lex.uz/docs/4539502>
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг, 2022-йил 02-декабрь ПҚ-436-сон “2030 йилгача Ўзбекистон Республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтишига қаратилган ислохотлар самарадорлигини ошириш бўйича чоратадбирлар тўғрисида” Қарори <https://lex.uz/docs/6303230>
11. United Nations Environment Program (2023). Emissions Gap Report 2023: Broken Record — Temperatures hit new highs, yet world fails to cut emissions (again). Nairobi.
12. URL: <https://doi.org/10.59117/20.500.11822/43922>.
13. Sachs, J.D. (2015), The Age of Sustainable Development. Columbia University Press, New York. URL: <https://doi.org/10.7312/sach17314>
14. United Nations Environment Program (UNEP). (2016). Green Finance for Developing Countries: A Review of the Role of Multilateral Development Banks. UNEP Report. URL: <https://digitallibrary.un.org/record/3846750?ln=ru&v=pdf>
15. Кабир Л. С. Социально ответственное инвестирование: тренд или временное явление? Экономика. Налоги. Право. 2017;(4):35–41.
16. Sandor R. Good derivatives: a story of financial and environmental innovation. Hoboken: John Wiley & Sons; 2012. 640 p. URL: [https://www.wiley.com/en-us/Good+Derivatives%](https://www.wiley.com/en-us/Good+Derivatives%20).

17. Бобылев С. Н. Новые приоритеты для экономики и зеленое финансирование. Экономическое возрождение России. 2021;67(1):152–166. DOI: 10.37930/1990–9780–2021–1–67–152–166

18. Мудрецов А. Ф., Прудникова А. А. Традиционные и зеленые источники энергии: проблемы и перспективы развития в условиях глобальной декарбонизации. Проблемы рыночной экономики. 2022;(1):159–168. DOI: 10.33051/2500–2325–2022–1–159–168

19. Better Growth. Better climate: the new climate economy synthesis report. the global commission on the economy and climate. Washington DC: World Resources Institute; 2014. 71 p.

20. David Gilchrist, Jing Yu and Rui Zhong. The limits of green finance: a survey of literature in the context of green bonds and green loans. Sustainability. 2021;13:478. DOI: 10.3390/su13020478

21. Крылова Л.В., Прудникова А.А., Сергеева Н. В. Новые направления использования инструментов зеленого финансирования как фактор развития рынка. Экономика, налоги, право. 2022;15(5):90–100. DOI: 10.26794/1999–849X 2022–15–4–90–100

22. Прудникова А. А. Зеленое финансирование для достижения целей устойчивого развития: современное состояние и перспективы. Экономика. Налоги. Право. 2023;16(3):16-23. DOI : 10.26794/1999-849X- 2023-16-3-16-23



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, iyul, 7-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOST 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**